



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILINI O'RGATISHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Qahramonov Aliboy Yolgoshovich

Filologiya fanlari nomzodi, ISFT instituti katta o'qituvchisi

Chorshanbiyeva Munira Rustam qizi

Xudoyberdiyeva Nafisa Abdurahmon qizi

Eshbekova Munira Mamirovna

ISFT instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabalari

Annotatsiya: Ta'lim muassasalarida ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda ona tilini o'rgatishning lingvistik asoslari, ona tilini o'rgatishning xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: fonetika, leksika, ona tili, lingvistik, so'z yasalishi, mavzu, morfologiya, ma'no, shakl, sintaksis, grammatika, o'quvchi.

Maktabda o'quv predmeti sifatida tilni o'rganish tizimi tilning barcha tomonlarini, ya'ni fonetikasi, leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi (morfologiya va sintaksis)ning o'zaro ichki bog'lanishlariga asoslanadi. Tilning barcha tomonlari o'zaro bog'lanishining ko'p qirraliligi va murakkabligi, ularning dialektik birligi, avvalo, uning aloqa vositasidagi vazifasida namoyon bo'ladi. Aloqa vositaligi tilning muhim xususiyati, asosidir. Bu vazifani tilning har bir qismi boshqa qismlar bilan o'zaro bog'lanishda bajaradi. Har bir so'zga xos bo'lgan tovush shakli kishilarga aloqa uchun imkoniyat yaratadi. Ammo so'zning tovush qurilishi, shakli mazmunsiz aqlga to'g'ri kelmaganidek, o'zicha yashamaydi. Istalgan tovushlar yig'indisi emas, balki ma'lum ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisigina aloqa maqsadiga xizmat qilishi mumkin.

Ma'lumki, ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisi so'zdir. Tilning lug'at boyligi, leksikasi fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan o'ziga xos qurilish materialidir.

Tilning lug'ati qanchalik boy bo'lsa ham grammatikasiz u o'lik hisoblanadi. Tilning lug'at boyligi o'z-o'zicha aloqa vazifasini bajarmaydi. Aloqa maqsadida xizmat qilish uchun lug'at boyligidagi so'zlar bir-biri bilan grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, gap tuziladi. Mana shu tuzilgan gap orqali fikr ifodalanadi.



Tilning har bir tomonining xususiyati undagi til birliklarining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Fonetika uchun bunday til birligi nutq tovushlari, fonemalar; leksikologiya uchun ma'nosi va qo'llanishi nuqtai nazardan so'z; grammatika uchun so'z shakllari, shuningdek, so'z birikmasi va gap; so'z yasalishi uchun morfema, tuzilishi va yasalishi jihatdan so'z hisoblanadi.

So'z, so'z birikmasi va gap grammatik tomondan ko'pgina xususiyatlarga ega. So'zning o'z morfemik qurilishi, o'zining so'z yasalish turi, biror grammatik kategoriyasi (shaxs, son, egalik, kelishik va boshq.), ma'lum sintaktik vazifasi bor. So'z birikmasi ham so'z kabi so'z o'zgarishi (ko'proq ergash so'z o'zgaradi) shakllariga ega. Gap o'z qurilishiga ko'ra so'zdan sifat jihatdan farqlanadi: so'z o'zi alohida kelganda mustaqil ma'no anglatmaydigan morfemalardan tuziladi, gapni tashkil etuvchi qismlar esa gapdan tashqarida ham mustaqil leksik ma'no bildiradi, gap tarkibida esa uning ma'nosi yana oydinlashadi. Gap va so'z birikmasi "qurilish materiali" sifatida xilma-xil tuzilgan so'zdan foydalanadi. Gap uchun qator sintaktik xususiyatlar, shuningdek, tugallangan ohang ham xarakterlidir. SHunday qilib, tilning har bir jihatining o'ziga xos xususiyatini ko'rib chiqishning o'zi ularning o'zaro munosabatini, bir-biriga o'tishining murakkabligini ta'kidlaydi. Tilshunoslik fani bo'limlari o'rtasidagi munosabatlar ham shunga o'xshash murakkabdir.

Fonetika, leksikologiya bilan ham, grammatika bilan ham bog'lanadi. Tovushlar, fonemalar, bo'g'inlar tilda alohida emas, balki ma'lum leksik ma'no bildiradigan so'z tarkibida yashaydi.

Fonetikaning sintaksis bilan bog'lanishi, xususan, har bir gapda ma'lum ohangda bo'lishida ko'rinadi. Grammatik va semantik jihatdan bog'langan so'zlar majmuasi ma'lum ohangga ega bo'lsagina gap hisoblanadi. Bunda gapning mazmuni so'zlovchining gapda ifodalangan ohangiga bog'liq bo'ladi. SHunday qilib, ohang gapda so'z tartibi, yordamchi so'zlardan foydalanish, so'z o'zgartishlar bilan birga gap tuzish usullaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Leksikologiya so'z yasalishi bilan jips bog'lanadi: birinchidan, tilning lug'at tarkibi, asosan, tilda mavjud bo'lgan so'zlardan yangi so'zlar yasalishi hisobiga to'ldirilib, boyib boradi; ikkinchidan, yasalgan so'zlarning leksik ma'nosi yasama negizning moddiy ma'nosiga asoslanadi.

Morfologiya leksikologiya va so'z yasalishi bilan jips bog'langan. Morfologiya, asosan, so'zning grammatik xususiyatlarini o'rganadi. So'zning grammatik ma'nosi doimo leksik ma'nosi bilan birga namoyon bo'ladi, har bir so'z, bir tomondan, shu so'zga tegishli bo'lgan ma'lum o'ziga xos leksik-grammatik guruhning belgilarini bildiradi, ikkinchi tomondan, u so'zning o'z leksik ma'nosi bo'ladi. So'zdagi mana shu umumiy birlik morfologiyada, leksikadan ajralmagan holda, leksika zaminida o'rganiladi.



Soʻz uchun muqarrar morfemik tarkibi xarakterli boʻlib, bunga soʻzning leksik maʼnosi va qator grammatik belgilari bogʻliq boʻladi. Yangi soʻz qaysi usul bilan yasalmasin, u doim grammatik shakllanadi va oʻzining leksik maʼnosiga ega boʻladi. Har bir soʻz turkumida soʻz yasashining xarakterli xususiyatlari mavjud. Soʻzning morfemik tarkibi va yangi soʻz yasash usullari tilshunoslik fanining soʻz yasashi boʻlimida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda oʻrganiladi.

Morfologiya va sintaksis har tomonlama oʻzaro bogʻlanadi. Morfologiyada, asosan, soʻzlarning grammatik maʼnosi va uni ifodalash shakllari oʻrganiladi; sintaksisda soʻzlarni oʻzaro bogʻlanib soʻz birikmasi va gap hosil qilish usullari, shuningdek, gap turlari, ularning mazmuni va ishlatilishi oʻrganiladi. Soʻz morfologiyada ham, sintaksisda ham oʻrganiladi, ammo oʻrganish obʼekti har xil boʻladi. Sintaksisning oʻrganish obʼekti gapdir; unda soʻz gap yoki soʻz birikmasida boshqa soʻzlar bilan maʼno va grammatik jihatdan bogʻlangan holda oʻrganiladi.

Morfologiyada soʻz gapdan tashqarida ham oʻrganilishi mumkin; soʻzga muayyan leksik-grammatik guruhga kiradigan soʻzlar bilan oʻzaro munosabati nuqtai nazaridan qaraladi. Morfologiya va sintaksisda soʻzga bunday har xil yondashish ularning bir-biriga bogʻliqligini inkor etmaydi, aksincha, ular soʻz va gapning oʻzida yashaydi. Soʻzlar soʻz oʻzgarish tizimiga ega boʻlgani tufayli gaplar aloqa vazifasini bajaradi. SHakl yasashi va soʻz yasashi morfologiyada oʻrganiladi, ammo gapda tatbiq etiladi, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish qoidalarini oʻrganish esa sintaksis sohasiga taalluqlidir. Soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish usulini aniqlashda shu soʻz birikmasiga kirgan soʻz turkumining morfologik xususiyatlari hisobga olinadi. Bular morfologiya va sintaksisda bir-biri bilan bogʻliq holda oʻrganiladigan til hodisalarining ayrimlaridir. Bu aniq misollar morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo qilsa ham, grammatikaning mustaqil boʻlimi ekanini taʼkidlash uchun yetarli.

Keltirilgan fikrlar boshlangʻich sinf oʻquvchilariga predmetlararo ichki bogʻlanishni hisobga olgan holda ona tilini oʻrgatish metodikasini belgilaydi.

1. Tilning barcha (leksik, fonetik, soʻz yasash, grammatik) tomonlari oʻzaro bogʻliqligini va ularning har biri oʻziga xos xususiyatlarga ega ekanini hisobga olib, oʻquvchilar tilni ongli oʻzlashtirishlari uchun tilning har bir tomoni xususiyatlarini va ular oʻrtasidagi bogʻlanishni oʻzlashtirishlari zarur. 1-4-sinflarda ona tilini oʻrganish tizimi fonetika, leksikologiya, soʻz yasashi va grammatikaning oʻzaro bogʻlanishi mohiyatini hisobga olgan holda tuziladi. Bu hol dastur materiallarini oʻrganish tartibini belgilashda ham, taʼlim mazmunini (dastur boʻlimlari oʻrtasidagi uzviy bogʻlanishni) aniqlashda ham hisobga olinadi.

2. Tilning barcha jihatlarining bir-biriga taʼsiri uning aloqa quroli vazifasida namoyon boʻladi. Tilning asosiy birligi sifatida aloqa maqsadida soʻzni toʻgʻri



talaffuz qilish yoki yozish, shu tilda soʻzlashuvchi barcha kishilarga bir xilda tushunarli boʻlishi, gapda grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilishi kerak. SHularni hisobga olib, kichik yoshdagi oʻquvchilar tilning talaffuzi, grafik, leksik, soʻz yasalihi va grammatik tomonlarining oʻzaro bogʻlanishi mohiyatini tushunishlari uchun dastur materialini oʻrganishda tilning aloqa vazifasi yetakchi ekani nazarda tutiladi, yaʼni kishilar bilan aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari birgalikda foydalanilishi hisobga olinadi. SHu maqsadda tilning fonetik tomonini oʻrganishda soʻzning maʼno va talaffuz jihatdan birlik hosil qilishini, tovushning soʻz maʼnosini farqlashdagi oʻrnini tushuntirishga katta ahamiyat qaratiladi.

"Soʻz" mavzusi oʻtilayotganda oʻquvchilar tomonidan soʻzning talaffuzi, leksik maʼnosi, morfologik tarkibi, grammatik belgilari, yasalihi, nutqda ishlatilishi va yozilishini yaxlit tushunishga asosiy diqqat qaratiladi. Bunda oʻqituvchi soʻzning nom boʻlib xizmat qilishini ham, morfemik tarkibi va leksik maʼnosining bir-biriga taʼsirini ham oʻquvchilarning tushunib olishlariga erishishi lozim.

"Gap" mavzusini oʻrganish vaqtida esa ishning asosiy yoʻnalishi nutqda gapning til birligi sifatidagi vazifasini tushuntirish va oʻquvchilarda ogʻzaki va yozma nutqlarida gapdan oson foydalanish koʻnikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Maktabda tilning barcha tomonlarini bir-biri bilan bogʻliq holda oʻrganish ona tilini oʻrgatishning yetakchi metodik tamoyili hisoblanadi. Buni amalga oshirish til oʻsuvchan, bir-biriga oʻzaro taʼsir etadigan tomonlari mavjud boʻlgan murakkab hodisa ekanini tushuntirishda ilmiy asos hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Musurmanova va boshqalar. Umumiy pedagogika. – Toshkent. Innovatsiya – Ziyo. 2020.
2. Mehridin Z. Isamuhammedov O. "Boshlangʻich taʼlim saboqlari" Toshkent 2014.
3. Gʻulomov A. Ona tili oʻqitish printsiplari va metodlari. T.: Oʻqituvchi, 1992
4. R.Qosimova, Boshlangʻich sinflarda imlosi qiyin soʻzlarni oʻrgatish, T.: 1964.
5. K.Qosimova, S.Matchonov, X.Gʻulomova, SH.Yoʻldosheva. SH.Sariyev. Ona tili oʻqitish metodikasi. T.,Noshir, 2009.
6. R.Qosimova, S. Fuzailov, A. Neʼmatova, Ona tili (2-sinf uchun darslik). T.: Choʻlpon, 2005.
7. K.Qosimova, A. Neʼmatova. 2-sinfda ona tili darslari. Choʻlpon, 2004
8. M.Xudoyberganova, M.Muxtorova. 3-sinfda ona tili darslari T.: „Oʻqituvchi",



2005.